

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI VA UNING INGLIZ HUQUQIDA TUTGAN ROLI

Xomidova Oyshaxonim Ulug'bek qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti talabasi, oyshaxonxomidova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va O'zbekistonning intellektual mulk huquqi tizimlari qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir davlatning qonunchilik bazasi, sud amaliyoti, statistik ko'rsatkichlari, xalqaro shartnomalarga muvofiqligi va amaliy qo'llanilishi o'rganiladi. Bundan tashqari, intellektual mulk huquqining ingliz huquqidagi o'ziga xos roli alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk huquqi, intellektual mulk, xalqaro mexanizm, huquqiy baza, sud amaliyoti, xorijiy tajriba.

KIRISH

“Intellektual mulk iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va madaniy rivojlanishni rag'batlantirishning asosiy vositasidir, chunki u ijodkorlarga o'z ishlarini tijoratlashtirish imkonini beradi.”³⁵

Intellektual mulk huquqi (IMH) zamonaviy iqtisodiyot va huquqiy tizimlarda innovatsiyalarni rag'batlantirish, ijodiy faoliyatni himoya qilish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida IMHning milliy va xalqaro miqyosda tartibga solinishi davlatlarning iqtisodiy salohiyati, investitsion jozibadorligi va innovatsion rivojlanishini belgilovchi omil sifatida qaralmoqda. Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda global miqyosda 3.4 million patent arizasi va 1.5 million tovar belgisi ro'yxatga olingan bo'lib, bu IMH sohasining iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi.³⁶ Xususan, rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya) va rivojlanayotgan davlatlar (O'zbekiston) o'rtasidagi IMH tizimlarining farqlari global savdo, investitsiyalar va texnologik almashinuvga ta'sir ko'rsatmoqda.

Ushbu maqolada Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va O'zbekistonning intellektual mulk huquqi tizimlari qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir davlatning qonunchilik bazasi, sud amaliyoti, statistik ko'rsatkichlari, xalqaro shartnomalarga muvofiqligi va amaliy qo'llanilishi o'rganiladi. Bundan tashqari, intellektual mulk huquqining ingliz huquqidagi o'ziga xos roli alohida ko'rib chiqiladi.

Ishning maqsadi – ushbu davlatlarning IMH tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning afzalliklari va kamchiliklarini baholash hamda O'zbekiston uchun chet el tajribasidan foydalangan holda takliflar ishlab chiqishdir.

³⁵ WIPO, What is Intellectual Property? (WIPO Publication No. 450(E), 2020) 3.

³⁶ WIPO, World Intellectual Property Indicators 2023 (WIPO 2023).

Ishda Lionel Bently, Brad Sherman, Richard Posner kabi olimlarning nazariyalari, intellektual mulk tushunchasi va IMHni tartibga solishning xalqaro mexanizmi, shuningdek, Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) ma'lumotlari asos qilib olinadi.

I. Intellektual mulk huquqi tushunchasi va uni tartibga solishning xalqaro mexanizmi

Intellektual mulk huquqi - bu insonning aqliy faoliyati natijalariga bo'lgan huquqlarni tartibga soluvchi huquqiy institut. U ixtirolar, seleksiya yutuqlari, nou-xaular, EHM uchun dasturlar, adabiy va badiiy asarlar, tovar belgilari, sanoat namunalari va savdo sirlari kabi obyektlarni himoya qiladi.³⁷ IMHning asosiy maqsadi ijodkorlar va ixtirochilarning huquqlarini ta'minlash, ularning mehnatini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishdir.

Intellektual mulk huquqi xalqaro maydonda bir qator xalqaro shartnomalar, tashkilotlar va institutlar orqali tartibga solinadi. Bunday xalqaro mexanizm davlatlar o'rtasida IMH himoyasini uyg'unlashtiradi, xalqaro standartlarni joriy etish va dunyo bo'ylab savdoni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Quydagi jadval orqali IMH ni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalarni bilib olishingiz mumkin:

1-jadval. IMH doirasidagi xalqaro shartnomalar

Jadvalni shakllantirishda quyidagi hujjatlardan foydalandim:

1. Bern Convention for the Protection of Literary and Artistic Works (1886, as amended 1979).
2. Paris Convention for the Protection of Industrial Property (1883, as amended 1979).
3. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS) (1994).
4. Protocol Relating to the Madrid Agreement Concerning the International Registration of Marks (1989).
5. Protocol Relating to the Madrid Agreement Concerning the International Registration of Marks (1989).

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1031-modd.

Bern Konvensiyasi (1886)	Parij Konvensiyasi (1883)	TRIPS kelishuvi (1994)	Madrid protokoli (1989)	Patent shartnomasi (PCT, 1970)
Mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha eng muhim shartnoma. U a'zo davlatlarga mualliflik huquqini avtomatik himoya qilishni yoki minimal 50 yillik himoya muddatini ta'minlashni talab qiladi.	Sanoat mulki doirasidagi "Savdo bilan bog'liq intellektual mulk huquqlari to'g'risida"gi minimal 50 yillik davlat chet el mualliflik huquqi uchun fuqarolariga o'z muallif vafotidan keyin 50 yil va a'zo davlatlardan huquqlar berishi kerak.	Jahon Savdo Tashkiloti (WTO): TRIPS kelishuvi orqali intellektual mulk bo'yicha shartnomalarni boshqaradi, statistik ma'lumotlarni to'playdi va davlatlarga texnik yordam ko'rsatadi.	Tovar belgilari ro'yxatga olishni xalqaro miqyosda soddalashtiradi, bir nechta davlatda himoya olishni imkonini beradi.	Patent arizalarini xalqaro miqyosda bir nechta davlatda topshirish imkonini beradi.

Shuningdek, xalqaro mexanizmida IMHni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO). Bu tashkilotning asosiy vazifasi intellektual mulk bo'yicha shartnomalarni boshqaradi, statistik ma'lumotlarni to'playdi va davlatlarga texnik yordam ko'rsatadi.

Jahon Savdo Tashkiloti (WTO): TRIPS kelishuvi orqali intellektual mulk huquqini savdo qoidalariga integratsiya qiladi. WTO nizolarni hal qilish mexanizmi orqali TRIPS majburiyatlarining bajarilishini nazorat qiladi.

Yevropa Patent Tashkiloti (EPO): Yevropa mintaqasida patentlarni ro'yxatga olishni markazlashtiradi, Germaniya kabi davlatlar uchun muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, O'zbekiston (1993-yil 19-fevraldan)³⁸, Germaniya (1970-yil 19-sentabrdan)³⁹ AQSh (1970-yil 25-avgustdan)⁴⁰ va Buyuk Britaniya (1970-yil 26-martdan)⁴¹ WIPO a'zosi, lekin O'zbekiston WTOga a'zo emas, Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniya esa a'zo. EOga faqat Germaniya va Buyuk Britaniya a'zo, O'zbekiston va AQSh Yevropa tashkiloti bo'lmagani uchun a'zo emas. WIPO IMH bo'yicha global shartnomalarni boshqaradi, WTO TRIPS orqali savdo va IMHni uyq'unlashtiradi, EO esa Yevropada patent tizimini soddalashtiradi. Ushbu tashkilotlar intellektual mulk huquqini (IMH) global miqyosda tartibga solish,

³⁸ WIPO, 'Member States: Uzbekistan' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=178

³⁹ WIPO, 'Member States: Germany' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=66

⁴⁰ WIPO, 'Member States: United States' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=177

⁴¹ WIPO, 'Member States: United Kingdom' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=176

standartlashtirish va himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning WTOga kirishi uchun IMH himoyasini kuchaytirish strategik ahamiyatga ega.

II. Intellektual mulk huquqi bo'yicha olimlarning nazariyalari

2.1. Ingliz huquq oilasida Uilyam Blekston nazariyasi:

Uilyam Blekston, XVIII asrning taniqli ingliz huquqshunosi, "Commentaries on the Laws of England"⁴² asarida intellektual mulk huquqini tabiiy huquq va shaxsiy mulk tushunchasi bilan bog'laydi. Uning fikricha, muallifning o'z ijodiy mehnati natijasida yaratilgan asari uning tabiiy mulki hisoblanadi, chunki u aqliy mehnatning mahsulidir. Blekston mualliflik huquqini (copyright) "umumiy huquq" (common law) doirasida himoya qilinadigan abadiy huquq sifatida ko'radi, lekin bu huquqni davlat qonunchiligi orqali cheklash mumkin deb hisoblaydi. Uning nazariyasida intellektual mulk shaxsiy mulk kabi himoya qilinishi kerak, ammo jamiyat manfaatlari uchun muayyan muddatlar bilan chegaralanishi lozim.⁴³

2.2. Romano-german huquq oilasida Iosif Koler nazariyasi:

XIX asr nemis huquqshunosi Iosif Koler intellektual mulk huquqini "immaterial mulk" (immaterielle Güter) tushunchasi orqali tahlil qilgan. Uning "Das Autorrecht"⁴⁴ (1880) asarida mualliflik huquqi shaxsning ijodiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan nomoddiy mulk sifatida ta'riflanadi. Kolerning fikricha, intellektual mulk nafaqat iqtisodiy qiymatga ega, balki muallifning shaxsiy huquqlarini (masalan, asarni o'zgartirish yoki nashr qilish huquqi) ham o'z ichiga oladi. U mualliflik huquqini fuqarolik huquqining bir qismi sifatida ko'rib, uni romano-german tizimining kodifikatsiyalangan qonunlari orqali tartibga solishni tarafdori edi. Koler patent huquqi va tovar belgilari kabi boshqa intellektual mulk turlarini ham iqtisodiy raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirish vositasi sifatida qo'llab-quvvatladi.⁴⁵

Yuqoridagi olimlarning fikriga o'zimning shaxsiy fikrimni xulosa qiladigan bo'lsam, ikkala olimning nazariyalarini to'g'ri deb o'ylayman. Chunki bir tomondan, intellekt bu shaxsning aqliy mahsuli bo'lganligi uchun tabiiy mulki hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa bu iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan nomoddiy mulk hisoblanadi.

III. Davlatlar bo'yicha intellektual mulk huquqining huquqiy bazasi

3.1. Intellektual mulk huquqini Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH va O'zbekiston davlati huquq tizimini qiyosiy solishtirish orqali tahlil qilamiz. Quyidagi jadval orqali qonunchilik tizimlarini ko'rishingiz mumkin.

Davlat	Huquqiy tizim	Asosiy qonunlar	Amal qilish muddati

⁴² William Blackstone, Commentaries on the Laws of England (1st edn, Oxford 1765–1769) vol 2, 405–407.

⁴³ William Blackstone, Commentaries on the Laws of England (1st edn, Oxford 1765–1769) vol 2, 405–407; Copyright, Designs and Patents Act 1988, s 12.

⁴⁴ Joseph Kohler, Das Autorrecht: Eine zivilistische Abhandlung (Jena 1880) 12–22.

⁴⁵ Joseph Kohler, Das Autorrecht: Eine zivilistische Abhandlung (Jena 1880) 12–22; Urheberrechtsgesetz 1965 (Germany), § 14.

Davlat	Huquqiy tizim	Asosiy qonunlar	Amal qilish muddati
Germaniya	Kontinental huquq	Urheberrechtsgesetz, Patentgesetz, Markengesetz	Mualliflik: 70 yil, Patent: 20 yil
Buyuk Britaniya	Umumiy huquq (common law)	Copyright Act 1988, Patents Act 1977	Mualliflik: 70 yil, Patent: 20 yil
AQSh	Umumiy huquq (common law)	Copyright Act 1976, Patent Act, Lanham Act	Mualliflik: 70/95yil, Patent: 20 yil
O'zbekiston	Kontinental huquq	Fuqarolik kodeksi, maxsus IMH qonunlari	Mualliflik: 70 yil, Patent: 20 yil

Yuqori jadvaldan xulosa qiladigan bo'lsak, Germaniya va O'zbekiston kontinental huquq tizimiga asoslanadi, bunda qonun hujjatlari ustuvorlik qiladi. Buyuk Britaniya va AQSh umumiy huquq tizimida sud presedentlari (case law) muhim rol o'ynaydi. AQShning savdo sirlari bo'yicha alohida qonunchiligi (UTSA) boshqa davlatlarda to'liq ekvivalentiga ega emas, bu uning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Shuningdek, barcha davlatlar asosiy xalqaro shartnomalarga a'zo bo'lib, minimal himoya standartlariga rioya qiladi. AQSh va Germaniya Patent Hamkorlik Shartnomasi (PCT) orqali global patent tizimida faolroq, Buyuk Britaniya Brexitdan keyin YI patent tizimidan cheklangan foydalanadi. O'zbekiston PCTdan foydalansada, global patent ro'yxatga olishda faolligi past.

IV. Intellektual mulk huquqiga oida sud amaliyotlari (keysar) tahlili

4.1. Merck v. Hexal (Germaniya)

Nizo predmeti: Merck kompaniyasi osteoporozga qarshi dori (Fosamax) patenti muddatini uzaytirishni xohladi. Hexal esa bu patentning muddati noto'g'ri uzaytirilgan deb, generik dori ishlab chiqarishga ruxsat so'radi.

Sud qarori: Germaniya Oliy sudi Hexal foydasiga qaror chiqardi, chunki patent muddati Yevropa qonunlariga (SPC qoidasi) ko'ra noto'g'ri uzaytirilgan edi.⁴⁶

⁴⁶ Merck v. Hexal, Bundesgerichtshof (BGH), X ZR 139/03, 2005.

IMHga ta'siri: Ish patent muddatlarini aniqlashda qat'iy qonunlarga rioya qilish muhimligini ko'rsatdi. Bu farmatsevtika sohasida yangi dorilar va arzon generik dorilar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

4.2. Samsung v. Apple (AQSh va Buyuk Britaniya)

Nizo predmeti: Apple Samsung'ni iPhone'ning dizayn patentlari va funksiyalarini (masalan, "slide to unlock") nusxalaganlikda aybladi. Samsung Apple'ni o'z patentlarini buzgan deb qarshi da'vo qildi.

Sud qarori: AQShda Samsung 539 million AQSh dollari jarima to'ladi, chunki Apple'ning dizayn patentlarini buzdi.⁴⁷ Buyuk Britaniyada sud Samsung foydasiga qaror chiqardi, chunki Galaxy planshetlari iPad dizaynidan farqli edi.⁴⁸

IMHga ta'siri: Dizayn patentlari va tovar belgilari global raqobatda muhim. Ish kompaniyalar o'z mahsulotlarini himoya qilish uchun aniq patent olishi kerakligini ko'rsatdi.

4.3. Oracle v. Google (AQSh)

Nizo predmeti: Oracle Google'ni Android'da Java platformasining 11,500 qator kodini ruxsatsiz ishlatganlikda aybladi. Google bu kodlarni "adolatli foydalanish" doirasida ishlatganini aytdi.

Sud qarori: AQSh Oliy sudi 2021-yilda Google foydasiga qaror chiqardi, kodlardan foydalanish adolatli foydalanish deb topildi.⁴⁹

IMHga ta'siri: Ish dasturiy ta'minotda mualliflik huquqi chegaralarini aniqladi va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun adolatli foydalanish muhimligini ta'kidladi.

Yuqoridagi keyslar yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsam, ushbu sud ishlari intellektual mulk huquqining turli sohalarni – patentlar, dizaynlar va mualliflik huquqini himoya qilishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Merck v. Hexal patent muddatlarini qat'iy tartibga solish zarurligini, Samsung v. Apple dizayn va brend himoyasining iqtisodiy ahamiyatini, Oracle v. Google esa dasturiy ta'minotda adolatli foydalanishni ta'kidlaydi. O'zbekiston uchun bu keyslar WTO a'zoligi va global bozorlarda raqobatlashish uchun IMH tizimini kuchaytirishda xalqaro tajribadan foydalanish muhimligini ko'rsatadi.

V. Intellektual mulk huquqining ingliz huquqida tutgan roli

Buyuk Britaniyada intellektual mulk huquqi (IMH) iqtisodiy o'sish, innovatsiyalar va iste'molchilarni himoya qilishda muhim o'rin tutadi. IMH Patents Act 1977, Trade Marks Act 1994 va Copyright, Designs and Patents Act 1988 kabi normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.⁵⁰ Bu qonunlar patentlar, tovar belgilari, dizaynlar va mualliflik huquqini himoya qilib, kompaniyalarga global bozorlarda

⁴⁷ Apple Inc. v. Samsung Electronics Co., 580 U.S. (2016).

⁴⁸ Samsung Electronics (UK) Ltd v. Apple Inc. [2012] EWHC 1882 (Pat).

⁴⁹ Google LLC v. Oracle America, Inc., 593 U.S. 1 (2021).

⁵⁰ Patents Act 1977; Trade Marks Act 1994; Copyright, Designs and Patents Act 1988.

raqobatlashish imkonini beradi. Masalan, GlaxoSmithKline patentlar orqali yangi dorilarni himoya qilib, 2023 yilda 30 milliard funt sterlingdan ortiq daromad keltirdi.⁵¹

IMH iqtisodiyotga katta hissa qo'shadi. 2023 yilda IMHga bog'liq sohalar (farmatsevtika, texnologiya, ijodiy industriyalar) Buyuk Britaniya YIMning 15% ini ta'minladi.⁵² Tovar belgilari va dizaynlar iste'molchilarni soxta mahsulotlardan himoya qiladi, masalan, Samsung v. Apple ishida sud Apple'ning dizayn patentlarini himoya qildi.⁵³ Mualliflik huquqi musiqa, kino va dasturiy ta'minotni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ijodiy soha eksportini 2023 yilda 40 milliard funtgacha oshirdi.⁵⁴

Ingliz huquqida IMH sud amaliyoti orqali rivojlanadi. UK Intellectual Property Office (UKIPO) patent va tovar belgilari ro'yxatini boshqaradi, 2023 yilda 20,000 patent va 80,000 tovar belgisi arizasini qabul qildi.⁵⁵ Sudlar, masalan, Samsung v. Apple ishida, IMHni qat'iy himoya qilib, adolatli raqobatni ta'minlaydi^[4]. Brexitdan keyin Buyuk Britaniya Yevropa patent tizimidan mustaqil bo'lsa-da, WIPO va WTO (TRIPS kelishuvi) standartlariga rioya qiladi.⁵⁶

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsam, Buyuk Britaniyada IMH iqtisodiyotning 15% ini ta'minlaydi va innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Patentlar farmatsevtika va texnologiya sohasida milliardlab daromad keltiradi. Tovar belgilari va dizaynlar iste'molchilarni soxta mahsulotlardan himoya qiladi. Mualliflik huquqi ijodiy industriyalarni qo'llab-quvvatlab, eksportni oshiradi. Patents Act 1977 va Trade Marks Act 1994 kabi qonunlar IMHni qat'iy tartibga soladi. UKIPO va sudlar, masalan, Samsung v. Apple ishida, IMHni samarali himoya qiladi. O'zbekiston uchun bu tajriba IMH tizimini rivojlantirish va WTO talablariga moslashishda muhim. Buyuk Britaniyaning IMH tizimi global raqobatbardoshlik va iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi.

VI. Chet el tajribasini o'rgangan holda quyidagi takliflarni bermoqchiman:

1-taklifim.

Buyuk Britaniya tajribasi: Buyuk Britaniyada Registered Designs Act 1949 ro'yxatdan o'tgan dizaynlarni 25 yil, ro'yxatdan o'tmagan dizaynlarni esa 3 yil himoya qiladi.⁵⁷ Bu kichik biznes va dizaynerlarga arzon va tezkor himoya beradi. 2023-yilda UKIPO 10,000 dizayn arizasini qayta ishlagan, ularning 40% i ro'yxatdan o'tmagan dizaynlar edi.⁵⁸

O'zbekistonda taklif: O'zbekistonda sanoat namunalari faqat ro'yxatdan o'tgan holda 10 yil himoyalanganadi.⁵⁹ Ro'yxatdan o'tmagan dizaynlar uchun 3 yillik himoya tizimi joriy etish taklif qilinadi. Bu to'qimachilik, mebel va hunarmandchilik sohasidagi kichik tadbirkorlarga (masalan, Andijon hunarmandlari) xarajatsiz himoya

⁵¹ GlaxoSmithKline, Annual Report 2023 (2024).

⁵² UK Intellectual Property Office, Economic Impact of Intellectual Property 2023 (2024).

⁵³ Samsung Electronics (UK) Ltd v. Apple Inc. [2012] EWHC 1882 (Pat).

⁵⁴ Department for Culture, Media and Sport, Creative Industries Economic Estimates 2023 (2024).

⁵⁵ UKIPO, Annual Report 2023–2024 (2024).

⁵⁶ UKIPO, Annual Report 2023–2024 (2024).

⁵⁷ Registered Designs Act 1949, UK.

⁵⁸ UK Intellectual Property Office, Annual Report 2023–2024 (2024).

⁵⁹ Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun, 2002.

beradi. Tizim “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonunga qo‘shimcha sifatida kiritilishi mumkin.⁶⁰

Huquqiy asos: Bern Konvensiyasi va TRIPS kelishuvi dizayn himoyasini qo‘llab-quvvatlaydi, ammo O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tmagan dizayn himoyasi yo‘q.⁶¹ 2-taklifim.

AQSh tajribasi: AQShda USPTO “Global Intellectual Property Academy” orqali IMH bo‘yicha bepul onlayn kurslar taklif qiladi. 2023-yilda 50,000 kishi ushbu kurslarda o‘qidi, bu esa patent va tovar belgisi arizalarini 15% oshirdi.⁶² Kurslar tadbirkorlar va yoshlarni IMHning ahamiyati haqida xabardor qiladi.

O‘zbekistonda taklif: O‘zbekistonda IMH bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimi PQ-4965‘da qo‘llab-quvvatlansa-da, ommaviy ta‘lim platformasi yo‘q.⁶³ Intellektual mulk agentligi va Oliy ta‘lim vazirligi bilan hamkorlikda “IMH Akademiyasi” onlayn platformasini ishga tushirish taklif qilinadi. Platforma bepul kurslar (patent, mualliflik huquqi, brending) orqali yoshlar va tadbirkorlarni o‘qitadi. Masalan, 2024-yilda O‘zbekiston aholisining 36,8 milliondan 18,8 millioni shaharda yashaydi, bu raqamli platformalar uchun katta auditoriya.⁶⁴ Kurslar ingliz va o‘zbek tillarida, my.gov.uz orqali taqdim etiladi.

Huquqiy asos: “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ta‘lim va innovatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo IMH bo‘yicha ommaviy ta‘lim hali joriy etilmagan.⁶⁵

Xulosa

O‘zbekiston IMH tizimini rivojlantirish uchun Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSh tajribalaridan foydalanishi mumkin. Buyuk Britaniya tajribasiga asoslangan ro‘yxatdan o‘tmagan dizayn himoyasi kichik biznesni qo‘llab-quvvatlaydi. AQShdagi kabi IMH ta‘lim platformasi yoshlar va tadbirkorlarni xabardor qiladi. 2023-yilda O‘zbekistonda faqat 43 ishlanma tijoratlashtirilgan, bu kam ko‘rsatkichdir. Takliflar PQ-4965 va “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga mos keladi. Germaniyaning Fraunhofer tizimi 1 milliard yevro daromad keltirganidek, O‘zbekiston ham patentlardan foyda ko‘rishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tmagan dizayn himoyasi Andijon kabi hududlarda hunarmandchilikni rivojlantiradi. AQShning ta‘lim platformasi 50,000 kishini o‘qitganidek, O‘zbekistonda millionlab aholini jalb qilishi mumkin. Ushbu takliflar O‘zbekistonni WTO talablariga yaqinlashtiradi va iqtisodiy integratsiyani oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Kitoblar

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zR 30.07.2008, O‘RQ-164-son.

⁶¹ Bern Convention for the Protection of Literary and Artistic Works (1886, amended 1979).

⁶² United States Patent and Trademark Office, FY 2023 Performance and Accountability Report (2023).

⁶³ PQ-4965, 2021.

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi aholisi, andstat.uz (2024).

⁶⁵ PF-37, “O‘zbekiston-2030 strategiyasi” (2024).

1. William Blackstone, Commentaries on the Laws of England (1st edn, Oxford 1765–1769) vol 2, 405–407.

2. Joseph Kohler, Das Autorrecht: Eine zivilistische Abhandlung (Jena 1880) 12–22.

II. Maqolalar va hisobotlar

3. Business Software Alliance, Global Software Survey 2022 (BSA 2022).

4. Department for Culture, Media and Sport, Creative Industries Economic Estimates 2023 (2024).

5. Deutsches Patent- und Markenamt, Jahresbericht 2023 (2024) https://www.dpma.de/english/our_office/publications/annual_report/index.html accessed 20 April 2025.

6. Fraunhofer-Gesellschaft, Annual Report 2023 (2024) <https://www.fraunhofer.de/en/about-fraunhofer/annual-report.html> accessed 20 April 2025.

7. GlaxoSmithKline, Annual Report 2023 (2024) <https://www.gsk.com/en-gb/investors/annual-report/> accessed 20 April 2025.

8. O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi, Yillik hisobot 2023 (2023) <https://ima.uz/uz/menu/yillik-hisobotlar> accessed 20 April 2025.

9. UK Intellectual Property Office, Annual Report 2023–2024 (2024) <https://www.gov.uk/government/publications/ipo-annual-report-and-accounts-2023-to-2024> accessed 20 April 2025.

10. UK Intellectual Property Office, Economic Impact of Intellectual Property 2023 (2024) <https://www.gov.uk/government/statistics/economic-impact-of-ip-2023> accessed 20 April 2025.

11. United States Patent and Trademark Office, FY 2023 Performance and Accountability Report (2023) <https://www.uspto.gov/about-us/performance-and-planning/annual-reports> accessed 20 April 2025.

12. WIPO, World Intellectual Property Indicators 2023 (WIPO 2023) <https://www.wipo.int/publications/en/details.jsp?id=4655> accessed 20 April 2025.

13. WIPO, What is WIPO? (WIPO Publication No. 450(E), 2020) <https://www.wipo.int/publications/en/details.jsp?id=4043> accessed 20 April 2025.

III. Normativ hujjatlar

14. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS) (1994) https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf accessed 20 April 2025.

15. Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works (1886, amended 1979) <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/berne/> accessed 20 April 2025.

16. Copyright, Designs and Patents Act 1988 (UK) <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1988/48/contents> accessed 20 April 2025.

17. EC Regulation 1768/92 on Supplementary Protection Certificates [1992] OJ L182/1 <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A31992R1768> accessed 20 April 2025.

18. European Patent Convention (EPC) (1973, amended 2000) <https://www.epo.org/law-practice/legal-texts/html/epc/2020/e/index.html> accessed 20 April 2025.

19. O'zbekiston Respublikasi, "Intellectual mulk to'g'risida"gi Qonun (30.07.2008, O'RQ-164-son) <https://lex.uz/docs/1390544> accessed 20 April 2025.

20. O'zbekiston Respublikasi, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun (2002) <https://lex.uz/docs/1390548> accessed 20 April 2025.

21. Patents Act 1977 (UK) <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1977/37/contents> accessed 20 April 2025.

22. PQ-4168, "Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2019) <https://lex.uz/docs/4236047> accessed 20 April 2025.

23. PQ-4965, "Intellectual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, 2021) <https://lex.uz/docs/5346147> accessed 20 April 2025.

24. PF-37, "O'zbekiston-2030 strategiyasi" (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2024) <https://lex.uz/docs/6783247> accessed 20 April 2025.

25. Registered Designs Act 1949 (UK) <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1949/88/contents> accessed 20 April 2025.

26. Trade Marks Act 1994 (UK) <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1994/26/contents> accessed 20 April 2025.

IV. Sud qarorlari

27. Apple Inc. v. Samsung Electronics Co., 580 U.S. (2016) https://www.supremecourt.gov/opinions/16pdf/15-777_7lho.pdf accessed 20 April 2025.

28. Google LLC v. Oracle America, Inc., 593 U.S. 1 (2021) https://www.supremecourt.gov/opinions/20pdf/18-956_d18f.pdf accessed 20 April 2025.

29. Merck v. Hexal, Bundesgerichtshof (BGH), X ZR 139/03, 2005.

30. Oracle America, Inc. v. Google Inc., 750 F.3d 1339 (Fed. Cir. 2014) <https://www.ca9.uscourts.gov/sites/default/files/opinions-orders/13-1021.Opinion.5-7-2014.1.PDF> accessed 20 April 2025.

31. Samsung Electronics (UK) Ltd v. Apple Inc. [2012] EWHC 1882 (Pat) <https://www.bailii.org/ew/cases/EWHC/Patents/2012/1882.html> accessed 20 April 2025.

V. Veb-saytlar va boshqa manbalar

32. European Patent Office, 'About the EPO' <https://www.epo.org/about-us.html> accessed 20 April 2025.

33. European Patent Office, 'Member States: Germany ' <https://www.epo.org/about-us/governance/member-states.html> accessed 20 April 2025.
34. European Patent Office, 'Member States: United Kingdom ' <https://www.epo.org/about-us/governance/member-states.html> accessed 20 April 2025.
35. Intellektual mulk tizimidan nimani kutmoqdamiz? (uza.uz, 10 November 2020) https://uza.uz/uz/posts/intellektual-mulk-tizimidan-nimani-kutmoqdamiz_223245 accessed 20 April 2025.
36. 'Apple and Samsung End Smartphone Patent Wars '(The New York Times, 27 June 2018) <https://www.nytimes.com/2018/06/27/technology/apple-samsung-smartphone-patent.html> accessed 20 April 2025.
37. O'zbekiston Respublikasi aholisi, andstat.uz (2024) <https://andstat.uz/uz/aholi/uzbekiston-respublikasi-aholisi> accessed 20 April 2025.
38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-oktyabr nutqi, uza.uz (2020) https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoyev-intellektual-mulk-sohasida-raqobatbardoshlikni-oshirish-zarur_223246 accessed 20 April 2025.
39. WIPO, 'Member States: Germany ' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=66 accessed 20 April 2025.
40. WIPO, 'Member States: United Kingdom ' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=176 accessed 20 April 2025.
41. WIPO, 'Member States: United States ' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=177 accessed 20 April 2025.
42. WIPO, 'Member States: Uzbekistan ' https://www.wipo.int/members/en/details.jsp?country_id=178 accessed 20 April 2025.
43. WTO, 'Accession: Uzbekistan ' https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/a1_uzbekistan_e.htm accessed 20 April 2025.
44. WTO, 'Members: European Union ' https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/eu_e.htm accessed 20 April 2025.
45. WTO, 'Members: United Kingdom ' https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/uk_e.htm accessed 20 April 2025.
46. WTO, 'Members: United States ' https://www.wto.org/english/thewto_e/countries_e/usa_e.htm accessed 20 April 2025.